

INKLUZIV TADBIRKORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Jumayeva Muxlisa Abdug`ani qizi

Alfraganus universiteti H.T.T.

Менежмент ва маркетинг кафедраси

катта ўқитувчиси, PhD

E-mail: m.jumayeva@afu.uz

ORCID: 0000-0001-8999-1776

Annotatsiya

Mazkur maqola mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi salbiy tendentsiyalarni bartaraf etishning innovatsion vositasi hamda tadbirkorlar e'tibordan chetda qolayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muammolarini hal etishning samarali mexanizmi sifatida inklyuziv tadbirkorlikning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va asoslashga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi - "inklyuziv tadbirkorlik" tushunchasini nazariy tahlil qilish, uni mazmunan o'xshash tushunchalardan farqlash hamda batafsil tavsiflashdir. Bunda inklyuziv, tijorat va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati va xayriya tashkilotlari faoliyatining qiyosiy tavsifi amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: inklyuzivlik, inklyuziv tadbirkorlik, inklyuziv biznes, ijtimoiy tadbirkorlik.

Анотация

Данная статья посвящена выявлению и обоснованию теоретико-методологических основ инклюзивного предпринимательства как инновационного инструмента устранения негативных тенденций социально-экономического развития стран и как эффективного механизма решения социальных проблем в обществе, которыми предприниматели пренебрегают. Цель исследования - теоретически проанализировать понятие «инклюзивное предпринимательство», выделить его среди аналогичных понятий и подробно описать. Проведена сравнительная характеристика деятельности инклюзивного, коммерческого и социального предпринимательства и деятельности благотворительных организаций.

Ключевые слова: инклюзия, инклюзивное предпринимательство, инклюзивный бизнес, социальное предпринимательство.

Abstract

This article is devoted to identifying and substantiating the theoretical and methodological foundations of inclusive entrepreneurship as an innovative tool for eliminating negative trends in the socio-economic development of countries and as an effective mechanism for solving social problems in society that entrepreneurs neglect.

The purpose of the study is to theoretically analyze the concept of "inclusive entrepreneurship", distinguish it from similar concepts and describe it in detail. A comparative characteristic of the activities of inclusive, commercial and social entrepreneurship and the activities of charitable organizations is carried out.

Keywords: inclusion, inclusive entrepreneurship, inclusive business, social entrepreneurship.

KIRISH

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalashuvni chuqurlashtiradigan ijtimoiy nomutanosibliklar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda innovatsion yondashuvlarni izlashni taqozo etmoqda. Tarixdan ma'lumki, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishda biznes sohasi asosan soliqlarni o'z vaqtida to'lash va xayriya dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish orqali moliyaviy ishtirok etib kelgan. Ijtimoiy muammolarni hal etishning o'ziga xos mexanizmlari esa davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining vakolati bo'lib qolgan. Ammo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari: misli ko'rilmagan ijtimoiy tabaqalanish, qashshoqlikning ommaviy tarqalishi, aholining qarishi, migratsiyasi, iqtisodiy inqiroz hodisalari iqtisodiy faol aholining moliyaviy yukini oshirdi va ularning hayot sifatini tobora pasaytirdi. Ijtimoiy kafolatlarning istalgan darajasini saqlab qolish esa davlat byudjetidan xarajatlarni ko'paytirishni talab qiladi, bunday masalalarni hal qilishda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti xususiy sektor ko'magini talab qiladi. Aynan shu kabi holatlar inklyuziv tadbirkorlik kabi ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun muqobil vositalarni topish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda inklyuziv jamiyat yaratish borasida qator muhim ishlar amalga oshirilayotgani, davlat rahbarining bir qancha qaror va farmonlari qabul qilingan. Shunday bo'lsada, mutaxassislarning ta'kidlashicha, global inklyuzivlik tendensiyasi hali mamlakatimga to'liq tadbiriq etilmagan. Jumladan nogironlarga davlat tashkilotlari va xususiy sektorning potensial xodimlari emas, asosan xayriya va reabilitatsiya yordamini oluvchilar sifatida qaraladi. Vaziyatni bartaraf etish maqsadida mamlakatda qator chora tadbirlar, jumladan, BMT Taraqqiyot dasturining "O'zbekiston biznes forumi" loyihasi va Savdo-sanoat palatasi hamkorligida uchta sinov inklyuziv loyihasi amalga oshirilgan[15].

Inklyuziv tadbirkorlik mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi salbiy tendentsiyalarni bartaraf etishning innovatsion vositasi, jamiyatning davlat tomonidan hal etilmaydigan va tadbirkorlar e'tiboridan chetda qolgan ijtimoiy muammolarini hal etishning samarali mexanizmidir. Inklyuziv tadbirkorlik hodisasi ham jahon, ham mahalliy fan uchun yangi, shuning uchun uning kontseptual va kategorik apparati yetarlicha o'rganilmagan. "Inklyuzivlik" atamasi birinchi marta 1970-yillarda AQShda qo'llanilganiga qaramay, olimlarning aksariyati uni faqat ijtimoiy inklyuziya sifatida

talqin qilishgan, bu esa barcha fuqarolarning jamiyatdagi faol ishtiroki darajasining oshishi sifatida tushunilgan. Bugungi kunda “inklyuzivlik” tushunchasi (inglizcha Inclusion – inklyuziv; frantsuzcha inclusif – o‘z ichiga qamrab oluvchi; lotincha – include – kiradi, o‘z ichiga oladi) barcha shaxslarni, ularning jismoniy, intellektual, madaniy, lingvistik, milliy va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, ijtimoiy munosabatlarga faol qo‘shilish jarayonini anglatadi. [2]. Olimlar mehnat bozorida noqulay ahvolda bo‘lgan (masalan, yoshlar, migrantlar va nafaqaxo‘rlar) va tadbirkorlik muhitida kam namoyon bo‘lgan (masalan, ayollar, yoshlar va nogironlar) aholi qatlamlarining tadbirkorlik salohiyati katta ekanligini qayd etadilar [1]. Mazkur potentsialni faollashtirish barcha ijtimoiy guruhlar uchun o‘zaro manfaatli, jumladan, fuqarolarga o‘z biznesini boshlash, ishga kirish, sifatli tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyati shaklida, ish beruvchilarga foyda shaklida hamda davlatga inklyuziv jamiyatni rivojlantirish va aholining o‘rta tabaqa vakillari ko‘payishi ko‘rinishida naf keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda “inklyuziv tadbirkorlik” tushunchasining puxta nazariy tadqiqotlari juda kamligini hisobga olib, “ijtimoiy tadbirkorlik”ni inklyuziv tadbirkorlikning paydo bo‘lishidagi zaruriy shart-sharoit deb hisoblagan holda, bu boradagi nashrlarni tahlil qilish va shu kontseptsiya o‘rganish maqsadga muvofiq.

Hozirda “Ijtimoiy tadbirkorlik” ilmiy kategoriyasi chet ellik olimlar tomonidan faol tadqiq qilinib bir qator xulosalar olinmoqda. Ular orasida quyidagilarni ta’kidlash joiz: J. G. Dees va J. Emerson [6] Ijtimoiy tadbirkorlikning beshta asosiy xususiyatini birinchi bo‘lib shakllantirgan; R. Martin va S. Osberg [9] o‘zlarining ijtimoiy tadbirkorlikka bag‘ishlangan ishida uning strategik boshqaruv xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratgan; J. J. Mair va I. S. Marty[8] ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlari ro‘yxatini biznes jarayonining o‘ziga xos sifatleri bilan takomillashtirgan; P. Nur [7] va E. Show [12] kabi olimlar esa resurslarning turli kombinatsiyalari yordamida inkluziv jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishning innovatsion yo‘llarini izlaganlar; J. Boschee va J. McClurg [4] tadbirkorlik faoliyatining asosiy mezonidan kelib chiqib ijtimoiy korxonalar tomonidan daromad olinishi muhimligini ta’kidlagan; J. Tompson va B. Doherty B. [13] iqtisodiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos ikki tomonlamaliligini va ular o‘rtasida o‘zaro manfaatli optimal nisbatni topish zarurligini asoslab bergan.

Yuqorida aytilgandek, “Inklyuziv tadbirkorlik” tushunchasiga dunyoning turli mamlakatlaridagi tadbirkorlik haqidagi ilmiy nashrlarda ancha kam murojaat qilingan. Ammo shunday bo‘lsada xorijiy olimlardan G. Shahin va M. Tixich [11] “Inklyuziv tadbirkorlik” konsepsiyasining ilk mualliflari desak bo‘ladi. Shuningdek, olimlar I.M. Repin [3] inklyuziv tadbirkorlikni qashshoqlikni bartaraf etishning amaliy vositasi sifatida o‘rgangan bo‘lsa, Lyax O. V., Lyashenko V. I., Kuzmenko N. V.[1] esa

mintaqaviy darajada inklyuziv tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning institutsional jihatlarini ochib bergan.

METODOLOGIYA

Maqolaning maqsadi - "inklyuziv tadbirkorlik" tushunchasini nazariy-metodologik tahlil qilish, uni mazmunan o'xshash tushunchalardan farqlash hamda batafsil tavsiflashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi umumiy va maxsus ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi: induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, tahlil va sintez, taqqoslash va guruhlash. Maqolada ilmiy adabiyotlarda tilga olingan "ijtimoiy biznes", "ijtimoiy tadbirkorlik", "inklyuziv biznes" va "inklyuziv tadbirkorlik" tushunchalarining ta'riflari tahlil qilindi. Bunda xorijiy va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlarining nazariy-metodologik yondashuvlari o'rganib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv tadbirkorlikka bevosita yoki bilvosita taalluqli turli atamalar mavjud: "biznesning ijtimoiy mas'uliyati", "ijtimoiy biznes", "ijtimoiy tadbirkorlik", "inklyuziv biznes", "inklyuziv tadbirkorlik", "inklyuziv biznes modellari", "inklyuziv tadbirkorlik faoliyati" va "ijtimoiy korxona tashabbuslari" va hokazo. Bir qarashda, tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, "ijtimoiy biznes" va "ijtimoiy tadbirkorlik" atamaları o'rtasida hech qanday farq yo'q, shuning uchun fanda bu atamalar ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bizning fikrimizcha, bular bir-biriga o'xshash tushunchalar bo'lib, ular motivatsiyaning turli yo'nalishiga ega - tijorat va ijtimoiy. "Ijtimoiy biznes" atamasini ilmiy muomalaga Nobel mukofoti laureati Muhammad Yunus [14] kiritgan. "Ijtimoiy biznes" deganda u zarar yoki dividend keltirmaydigan, investorga tegishli bo'lgan va barcha resurslarni jamoat manfaati uchun ishlatadigan tashkilotni tushunadi. Bunda foyda biznesga qayta investitsiya qilinadi va ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladi. Muallif ijtimoiy biznesning ikki turini ajratib ko'rsatadi:

1) investorga tegishli tashkilot bo'lib, zarar va dividend keltirmaydi; investor o'z foydasini biznesni kengaytirish va yaxshilashga qayta sarmoya kiritish orqali ijtimoiy muammolarni hal qiladi; vaqt o'tishi bilan investorlar o'z investitsiyalarini qaytarib olish huquqiga ega, ammo foyda va dividendlarsiz;

2) bevosita yoki maqsadli jamg'arma orqali kam ta'minlanganlarga tegishli tijorat tashkiloti bo'lib, oldindan belgilangan ijtimoiy maqsadni amalga oshiradi; foyda qashshoqlik darajasini pasaytirish uchun ishlatiladi [14].

"Ijtimoiy tadbirkorlik" atamasining eng keng tarqalgan ta'riflaridan biri M. Richardson [10] tomonidan taklif qilingan. "Ijtimoiy tadbirkorlik" deganda u turli xil xususiyatlarga ega korxonalarning keng doirasini tushunadi:

aniq ijtimoiy maqsadga egalik;

daromadlarining katta qismini tijoriy faoliyatdan olish;
daromadlarini ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirish [10].

"Inklyuziv biznes" atamasi Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon biznes kengashi (World Business Council for Sustainable Development) tomonidan taklif qilingan bo'lib, ushbu tashkilot xulosasiga ko'ra, faoliyati tijorat maqsadlari bilan bir qatorda qashshoqlik darajasini pasaytirish va aholi uchun imtiyozlar yaratishga qaratilgan korxonalar "Inklyuziv biznes" sifatida tasniflanadi. Inklyuziv biznes va notijorat va xayriya tashkilotlari o'rtasidagi farq esa foydada ko'rinadi: inklyuziv biznes foyda ko'radi, notijorat va xayriya tashkilotlari esa yo'q. Shunday qilib, "inklyuziv biznes" oddiy xayriyadan tashqariga chiqadi va murakkab ijtimoiy muammolarni hal qiladi: turmush darajasini oshiradi, kam daromadli odamlar uchun imkoniyatlar yaratadi va shu bilan birga o'zining moliyaviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi va foyda oladi. Inklyuziv biznes kontseptsiyasi rasman birinchi marta 2008 yil 1 iyulda BMTning "Hamma uchun qiymat yaratish: kambag'allar bilan biznes yuritish strategiyalari" (Creating Value for all: Strategies for Doing Business with the Poor) hisobotida taqdim etilgan [5]. Ushbu hisobotda mazkur biznes modelining asosiy xususiyatlari aniq keltirilgan va "inklyuziv biznes" tushunchasining eng umumlashtirilgan ta'rifi shakllantirilgan: "inklyuziv biznes - bu iste'molchilar, ishchilar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va barcha aholi vakillarining kam ta'minlangan qismini o'z ichiga olgan hamda ular uchun o'zaro manfaatli rivojlanishni ta'minlaydigan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan mumkin bo'lgan sxemasidir". Boshqacha qilib aytganda, inklyuziv tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi aholi farovonligini oshirishdek dolzarb ijtimoiy muammoni hal qilishdir [5].

Aynan "Inklyuziv tadbirkorlik" ilmiy atamasining mualliflari esa haqli ravishda olimlar H. Shahina va M. Tixich [11] bo'lib, "ijtimoiy tadbirkorlik"ni turli shakldagi nogironlik va/yoki og'ir iqtisodiy va ijtimoiy ahvolga tushib qolgan shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda biznesni rejalashtirish, biznesni rivojlantirishning individual maqsadlaridan foydalanish va qo'llab-quvvatlashni rejalashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish, konsensus asosida birgalikda ishlaydigan davlat va xususiy sheriklar resurslaridan foydalanishda yordam berish strategiyasi va jarayoni sifatida ta'rif berishgan.

Zamonaviy sharoitda tadbirkorlikni inklyuziv rivojlantirish siyosati tadbirkorlar orasida kam ta'minlangan yoki mehnat bozorida zaif bo'lgan ijtimoiy guruhlarni: yoshlar, ayollar, nogironlar kabi fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. "Ijtimoiy tadbirkorlik" va "inklyuziv tadbirkorlik" tushunchalarining adabiyotlardagi talqinini tahlil qilib, ushbu tushunchalar qaysidir ma'noda bir-biriga mos kelishini ko'rish mumkin. Inklyuziv tadbirkorlikning tijorat va ijtimoiy tadbirkorlikdan, shuningdek, xayriyadan asosiy farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadbirkorlikning ayrim turlarining qiyosiy tavsiflari

Turlari Belgilar	Tijorat korxonasi	Ijtimoiy tadbirkorlik	Inklyuziv tadbirkorlik	Xayriya
Faoliyatning asosiy maqsadi	Foyda olish	Jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish	Jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun foyda olish	Jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish
Strukturasi	Tijorat tuzilmasi	Ijtimoiy yo'naltirilgan tuzilma	Ijtimoiy yo'naltirilgan tijorat tuzilmasi	Ijtimoiy yo'naltirilgan tuzilma
Moliyalashtirish turi	Maksimal- lashtirishga intiladigan shaxsiy daromadlar	O'z daromadlari yoki tashqi moliyalashtirish manbalari	Maksimallashtirish ga intiladigan shaxsiy daromadlari	Tashqi moliyalashtirish (grantlar va xayriyalar).
Foyda	Foyda mulkdorlar yoki aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi	Foyda qayta investitsiya qilinadi	Foyda qisman mulkdorlar o'rtasida taqsimlanadi, ham qayta investitsiya qilinadi, ham ijtimoiy muammolarga yo'naltiriladi.	— (notijoriy faoliyat)
Moliyalashti- rishning tashqi manbalariga bog'liqligi	Investitsiyala r shaklida kapitalni jalb qilish	Tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb qilishni talab qiladi	Investitsiyalar shaklida kapitalni jalb qilish	U faqat tashqi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi
Xarajatlarning tabiati	Xarajatlar biznesni rivojlantirish ga qaratilgan	Xarajatlar ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan	Xarajatlar biznesni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi	Xarajatlar ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan

Umuman olganda, "Ijtimoiy biznes" - bu ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun yaratilgan biznesni tavsiflovchi umumiy atama, masalan: qashshoqlikni kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va boshqalar. "Inklyuziv biznes" — bu kambag'allikni qisqartirish maqsadida kam daromadli aholi qatlamlari potensialini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish orqali ularni qiymat zanjiriga qamrab oluvchi biznesni tavsiflovchi aniqroq atama. "Inklyuziv biznes" va "inklyuziv tadbirkorlik" tushunchalarining nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, mahalliy va xorijiy

adabiyotlarda ular bir oz o'xshash va farqli ma'nolarga ega. Ammo ikkala tushuncha talqini ham to'liq emas: "inklyuziv biznes" tadbirkorlik faoliyatiga faqat kam ta'minlangan shaxslarni jalb qilish muhimligini va "inklyuziv tadbirkorlik" esa nogironligi bo'lgan shaxslarni jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi. Biz taklif qilamizki, inklyuziv tadbirkorlik deganda turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning jismoniy, intellektual, madaniy, lingvistik va milliy xususiyatlaridan shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari vakili ekanidan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadigan faoliyati tushunilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'sib borayotgan ijtimoiy tengsizlik sharoitida inklyuziv tadbirkorlik har qanday kamsitishlarni bartaraf etish va jismoniy, intellektual, madaniy, lingvistik, milliy va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolarining salohiyatini, shu jumladan aholining imkoniyati cheklangan qatlamlarini iqtisodiy faolligini oshirishning istiqbolli vositasidir. Inklyuziv tadbirkorlik iqtisodiyotda sust ishtirok etayotgan fuqarolarni, xususan, kam ta'minlanganlar, nogironlar, keksalar, ayollar, qishloq aholisi kabi aholi turli qatlamlarini iqtisodiy faolligini rag'batlantiradi. Inklyuziv tadbirkorlikni fuqarolik jamiyati yetukligining ko'rsatkichi, tadbirkorlarning atrof-muhit, fuqarolar va butun jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati darajasining o'lchovi deb hisoblash mumkin. O'zbekistonda va dunyoda inklyuziv tadbirkorlikning institutsional asoslari yaratish, uni rivojlantirish muammolari va istiqbollari aniqlash keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lyax O. V., Lyashenko V. I., Kuzmenko N. V. Koncepciya instytutciynoyi pidtrymky inklyuzyvnogo pidpryyemnyctva na regionalnomu rivni. Ekonomichnyy visnyk Donbasu. 2018. № 2. C. 212-232. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/ecvd_2018_2_34
2. Poroshenko M.A. Inklyuzychna osvita: navchalnyy posibnyk. Kyiv : TOV «Agenstvo «Ukrayina». 2019. 300 c.
3. Ryepina I.M. Yevropejske inklyuzyvne pidpryyemnyctvo: prykladni instrumenty podolannya bidnosti. Zbirnyk materialiv naukovo-praktychnoyi konferenciyi «Yevropejski studiyi v Ukrayini: zdobutky, vyklyky ta perspektyvy». K., 2017. S. 282-286. URL: https://ir.kneu.edu.ua/bitstream/handle/2010/32128/4_R_282.pdf?sequence=1&isAllowed=y
4. Boschee J., McClurg J. Toward a better understanding of social entrepreneurship: some important distinctions. 2003. p. 194.

5. Creating Value for all: Strategies for Doing Business with the Poor. United Nations Development Programme (2008). URL: https://www.undp.org/content/dam/rwanda/docs/povred/RW_rp_Creating_Value_for_All_Doing_Business_with_the_Poor.pdf
6. Dees J.G., Emerson J. Enterprising nonprofits: A toolkit for social entrepreneurs. New York: John Wiley & Sons, 2001. 134 p.
7. Light P.C. Reshaping social entrepreneurship. Stanford Social Innovation Review. 2006. № 3. p. 46.
8. Mair J., Marty I. Social entrepreneurship research: A source of explanation, prediction, and delight. Journal of World Business. 2006. № 41. p. 36-44.
9. Martin R.L., Osberg S. Social Entrepreneurship: the Case for Definition. Stanford Social Innovation Review. 2007. p. 89.
10. Richardson M. Social Enterprise: Lessons learned from the UK : доповідь на II Всеукраїнському форумі соціальних підприємців. Київ, 16.11.2016.
11. Shaheen, Gary & Tihic, Mirza & Abdul-Qadir, El-Java. (2011). Inclusive Entrepreneurship. Conference: Society for Disability Studies At: San Jose, CA. URL: <https://www.yumpu.com/en/document/read/4518640/inclusive-entrepreneurship-burton-blatt-institute-at-syracuse>
12. Shaw E. Social entrepreneurship: theoretical antecedents and empirical analysis of entrepreneurial processes and outcomes. Journal of Small Business and Enterprise Development. 2007. № 3. p. 418-434.
13. Thompson J., B. Doherty B. The diverse world of social enterprise: a collection of social enterprise stories. International Journal of Social Economics. 2006. № 5/6. p. 361-375.
14. Yunus M. Building Social Business: The New Kind of Capitalism that Serves Humanity's Most Pressing Needs. URL: <https://sun-connect-news.org/fileadmin/DATEIEN/Dateien/New/BUILDING-SOCIALBUSINESS-MUHAMMAD-YUNUS.pdf>
15. <https://uza.uz/oz/posts/inklyuziv-biznes-barcha-uchun-foydali-05-05-2015>